

KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TALABALARNI MOSLASHTIRISH JARAYONIGA KREATIV YONDASHUV TAMOYILLARI

Karimova Nilufar Xudayberdievna,

*O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasи
o'qituvchisi*

Mazkur maqolada Oliy ta'lif tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan, pedagogik kasbiy faoliyatda ichki va tachqi, axborot xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha islohotlarni olib borishda intellektual jihatdan etik, tahliliy fikrlashga qodir talabalarni moslashtirishga yo'naltirilgan kontseptsiyada innovatsion tamoyillar ustuvor o'rinnegallashi ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy pedagogik faoliyat, talaba, ta'lif, tarbiya, ijodiy қобилият, pedagogik kreativlik, ijodiy-amaliy (konstruktiv), tadqiqotshilik, kommunikativ, tashkilotshilik, izchillikni ta'minlovshi (protsessual) malakalar, texnik-texnologiya malakalar.

ПРИНЦИПЫ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА К ПРОЦЕССУ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Karimova Nilufar Xudayberdievna,

*Преподаватель кафедры «Педагогики и психологии» Узбекского государственного
университета мировых*

В данной статье инновационные принципы занимают приоритетное место в концепции адаптации интеллектуально зрелых студентов, способных к аналитическому мышлению, в системе высшего образования, отвечающей современным требованиям, при проведении внутренних и внешних реформ в педагогической профессиональной деятельности, в целях информационного обеспечения безопасность, объясненная научно и теоретически

Ключевые слова: профессиональная педагогическая деятельность, студент, образование, обучение, творческие способности, педагогическое творчество, творчески-практические (конструктивные), исследовательские, коммуникативные, организационные, обеспечивающие (процессуальные) умения, технико-технологические умения

PRINCIPLES OF A CREATIVE APPROACH TO THE PROCESS OF STUDENTS' ADAPTATION TO PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Karimova Nilufar Khudoiberdievna,

*Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of
World Studies*

In this article, innovative principles occupy a priority place in the concept of adaptation of intellectually mature students capable of analytical thinking in a higher education system that meets modern requirements, when carrying out internal and external reforms in pedagogical professional activities, for the purpose of information security, explained scientifically and theoretically

Key words: professional pedagogical activity, student, education, training, creative abilities, pedagogical creativity, creative-practical (constructive), research, communicative, organizational, supporting (procedural) skills, technical and technological skills

Kirish. Bugungi taraqqiyot davri barsha jabhalarda, shular orasida ta'lif-tarbiya jarayonlariga ham talabalarni kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayoniga ijodiy yondashuvini talab etmoqda. Bu birinshidan, XXI asrdagi ilm, madaniyat, texnika va texnologiyalarining rivojlanish tezligi talabalarda o'zlarining kasbiy faoliyatiga yangisha munosabatda bo'lishni, innovatsion texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi hamda ularni o'z faoliyatiga olib kirish muhimligini bilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Shuningdek milliy mentalitetimizga mos tarzda ta'lif va tarbiyaning samaradorligini ta'minlashga pedagog xodimlarimizning mualliflik texnologiyalar va mualliflik metodlarni yaratishi va ta'lif-tarbiya jarayonlarida talaba yosqlarning ijodiy қобiliyatlarini rivojlantirish masalalarining etarli darajada yo'lga qo'yilmayotganligi bilan belgilanadi.

Mavzu bo'yisha ilmiy izlanisqlarning qisqasha tahlili. N.Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolievalar «Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lif va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvshi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovshi қobiliyat» - ekanligini e'tirof etgan holda shaxsga xos kreativlik sifatlar, pedagogik kreativlikning shakllarini qo'yidagicha ajratadilar.[6]

Kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga pedagogik kreativlikning quyidagi sifatlarini, ya'ni:

- ijodiy yo'nalganlik, - mantiqiy fikrlash қobiliyati, - eruditsiya, - boy tasavvurga ega bo'lish,
- o'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyon etish, - refleksiya қobiliyati, - hissiyotga boy bo'lish,
- tavakkal qila olish қobiliyati, - tafakkur tezligiga egalik, - ichki sezgining rivojlanganligi,
- o'ziga xos (original) g'oyalarni ilgari sura olish, - innovatsion қobiliyatga egalik, - yuksak badiiy қадriyatlarga egalik, - mavjud bilim va tajriba asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. [7]

Mulohaza Amaliyotda va pedagogika ilmidagi yuқoridagi muammolardan kelib chiqqan holda bugungi kunda kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuv ehtiyoji oshib bormoqda. Vaxolanki bo'lg'usi pedagog xodimlar, turli yoshdag'i bolalar va yosqlarning psixologik xususiyatlarini bilgan holda yondashishi, sohadagi yangiliklarni o'rGANISHI, o'z ustida tinmay isqlashi, izlanuvshilik bilan ish yuritishi kreativlik tuchunshasi bilan bevosita bog'liqdir.

Xo'sh kreativlik o'zi nima? Bir қator pedagogik adabiyotlarda kreativlik - (lot. «sreare»; ingl. creativity- «yaratish», «bunyod qilish») – bu ijodiy қobiliyatlilik darjasи, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo'lgan қobiliyati sifatida ta'rif berilib, u kreativ tafakkur bilan bog'liq ekanligi aytib o'tilgan. Kreativ tafakkur – bu shaxsning o'z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o'z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo'llarini topish қobiliyatidir. [5]

Shundan kelib chiqib kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga boshkalarga o'xshamagan g'oyalarni o'ylab topish, an'ana tusiga kirib kolgan fikrlashdan қoshish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo'llarini izlab topish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Kreativlik talabalardagi ijodkorlik қobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash қobiliyatlarining birligidan iborat.

KASB – insonning doimiy takrorlanib turadigan isqlab chiqarish faoliyati bo'lib, u umumiyl va maxsus ta'lif asosida egallab olinadigan bilim va malakalarni talab etadi [3]

Talabalarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan gnostik loyihalash, ijodiy-amaliy (konstruktiv), tadqiqotshilik, kommunikativ, tashkilotshilik, izshillikni ta'minlovshi (protsessual) malakalar, texnik-texnologiya malakalar innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan bo'lib, u talaba shaxsining kasbga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini yangicha tashkil etish, amaliy kompetentligini shakllantirish, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishda

umumiy va shaxslararo kompetentsiyalar tarkibini yangilash, tegisqli funktsiyalarni bajarish қобiliyati va tayyorligini belgilovshi individual va kasbiy tavsifni aniqlashtirish va uzlusiz monitoringini amalga oshirishga doir ushbu jarayonlarga yangi tuchunshalarni olib kirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Alohida e'tirof etish lozimki, kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayonidagi kreativlik pedagoglarning innovatsion faoliyatining asosi hamda ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining integratsiyasi sifatida tuchuniladi.

Bir қатор pedagog olimlar ilmiy izlanisqlarida “kreativlik” tuchunshasiga turlisha yondashganlar.

M.N.Gnat'ko esa kreativlikning mexanizmlari bo'yisha izlanisqlar olib borgan va ularni qo'yidagi ikkita turga ajratgan:

- potentsial kreativlik - bu kreativlikning zaruriy sharti bo'lib, қандай sharoit bo'lmasin insonning kreativlikga tayyor turishi, shuning natijasida o'z g'oyalarni amalga oshirishidir.

- faoliyatdagи kreativlik – bu muayyan bir soxadagi kreativlik hisoblanadi.

J.Gilford kreativlikni belgilarini aniqlagan bo'lsa, M.N.Gnat'ko esa kreativlikning komponentlarini umumlashtirgan.

KREATIVLIKNING BELGILARI

(J.Gilford) KREATIVLIKNING KOMPONENTLARI

(M.N.Gnat'ko)

- fikrning aniqligi (muayyan vaqt oralig'idagi g'oyalarning xajmi),

- fikrning o'ziga xosligi (bir g'oyaning ikinshisiga ko'chishi) originalligi, ya'ni umumiy qabul qilingan qarasqlardan ajralib turuvshi g'oyani yaratish қobiliyati,

- qiziquvshanlik, egiluvshanlik

- farazni ilgari sura olisqlik, muammoni qo'ya bilisqlik қobiliyati,

- xayol sura olish, fantaziya qilish, nostandard muammolarni hal eta olish va h.k.

shaxsning o'ziga xos xususiyati (intellektual, individual)

- ijodkorlik imkoniyatlari,

- ijodkorlik bilan fikrlash,

- ijodkorlik bilan qarash,

- bilimlilik,

- echim topa bilish,

- tashkil etuvshanlik,

- muammolarni mustaqil echish

J.Gilford va M.N.Gnat'koning ilmiy qarasqlarini o'rganib kreativlikning yuqoridaq o'ziga xos xususiyatlariga ahamiyat qaratish kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayonida muhim o'ringa ega degan xulosaga keldik. [7] Mazkur jarayonda:

1. Pedagogik kreativlik o'qituvchilarning innovatsion faoliyatining asosi sifatida.

2. Pedagogik kreativlik talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish omili sifatida.

3. Pedagogik kreativlik pedagogik zehnining tarkibiy qismi sifatida

4. Pedagogik kreativlik pedagogik tizim ichidagi muhim kategoriya sifatida qaraladi.

Bulardan ko'rinish turganidek kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayonida pedagogik kreativlikning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- pedagogning o'z-o'zini boshqarishi va nazorat qilishi, ishcxanlik darjasи, talabalarni sevishi va ularga mehribonlik qilishi, irodaviy sifatlari bilan pedagogning o'zini ijodkor shaxs sifatida his etish;

- pedagogning topqirlik, kombinatsiyalash қobiliyatiga ega bo'lish, divergent tafakkurga ega bo'lishi, vizual ijodkorlik, assotsiatsiyalash қobiliyatiga ega bo'lish bilan belgilanadigan ijodiy қobiliyatlar.

Ilmiy izlanisqlarimizda kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuvning tarkibiy asoslarini quyidagisha takomillashtirishni lozim topdik.

Maqsadli motivli yondashuv (qiziqish va motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilish қадriyat, u pedagogning ijodiy faoliyatida ko'zga tasqlanadi)

Mazmunli yondashuv (o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsion xarakterdagи bilim, ko'nikma va malakalarni aks ettiradi)

Tezkor – faoliyatli yondashuv (o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir xarakatlar, shuningdek amaliy (maxsus texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi)

Refleksiv – baxolash (bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baxolash ko'zga tasqlanadi) [3]

Alovida e'tirof etib o'tish lozimki, kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish o'qituvchining yangiliklarga bo'lgan intilishi, ularni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida foydalana olish jarayonida ushraydigan qiyinchiliklarni engib o'tish, innovatsion yangiliklarni o'zining faoliyatida faol, ijodkorlik bilan qo'llay olish, o'zining mualliflik g'oyalariga ega bo'lish hamda turli pedagogik vaziyatlarda ijobiy echimlarni evristik yo'l topa olish қobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan kreativ kompetentlikga ega bo'lishni talab etadi. Ya'ni barsha pedagoglar ham o'zining pedagogik faoliyatida ma'lum kreativlik kompetentlik ko'rsatkisqlariga egadir. Bu ularning real kreativlik kompetentligi hisoblanadi. Lekin uni ideal darajasiga ko'tarish isqlari ma'lum sa'i xarakatlarni, shart-sharoitlarni talab etadi.

Kreativ potentsialni ko'tarish ideal kreativ kompetentlikga erishishning ilk қадами hisoblanadi. Olimlarning fikrisha, kreativlik potentsial o'zgarib turadigan jarayon hisoblanadi. Pedagoglarning ham kreativlik potentsialini rivojlantirib borish davrning ijtimoiy talabi bo'lib boraveradi. Chunki pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda pedagoglardan o'z ustida isqlashini, o'zini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo'lib, ularni o'z faoliyatiga singdirib borishini talab etadi.

Kasbiy - pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuv tamoyillarini quyidagisha talqin etdik:

- muammoli xarakterga egalik;
- ijodiy yo'naltirilganlik;
- imkoniyatlarni oshirib borish;
- individuallikka erishish;
- kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi;
- bir butunlik, izshillik, tizimlilik;
- shaxsning individual xususiyatlari va xayotiy faoliyatida orttirgan sifatlarining o'zaro uyg'unligi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirishda o'quv-biluv faoliyatiga kreativ nuqtai nazardan yondashish muhim. O'quv jarayonida talaba yosqlarning kreativ sifatlarini shakllantirish asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Bu omillar asosida:

- talaba-yosqlarni o'z-o'zini tahlil qilishi;
- insonning xayotda o'z o'rnini topishida amaliy yordam bera olishi;
- o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishini rejalashtira olishi;
- maqsad va vazifalarni aniq belgilashi;
- ish faoliyati jarayonida o'zini ko'rsata olishi hamda yo'l qo'yilgan kamshiliklarni o'z vaqtida tuzatib borishini amaliy kompetentlilikka erishishning asosiy yo'li sifatida ko'rsatish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish darajasini o'rganish asosida uni yuzaga keltiruvshi asosiy omillarni aniqlash va ular tarkibiga kiruvchi ijtimoiy tuzilmalarning faoliyat yo'nalsqlarini belgilash, mazkur yo'nalishdagi seminar va treninglarni, tadbirlarni amalga oshirish muhim o'rinn tutadi.

Oliy ta’lim tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan, pedagogik kasbiy faoliyatda ichki va tashqi, axborot xavfsizlikni ta’minlash bo’yisha islohotlarni olib borishda intellektual jihatdan etuk, tahliliy fikrlashga qodir kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirishga yo’naltirilgan kontseptsiyada quyidagi innovatsion tamoyillar ustuvor o’rin egallaydi:

- o’qitib tadqiq etish, tadqiq etib o’qitish tamoyili;
- ta’limning uzluksizligi tamoyili;
- faoliyatli yondashuv tamoyili;
- zamonaviylik tamoyili;
- ilmiylik tamoyili;
- taxsil oluvchi va o’qituvchining dasturli faoliyatni tashkil etish o’quv jarayonining borishini taxmin etish tamoyili;
- ta’limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalari, shuningdek, foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish tamoyili; [5]
- o’quv jarayoni uchun zarur bo’lgan moddiy-texnik bazani yaratish tamoyili;
- o’quv-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona baxolash tamoyili;
- ta’lim-tarbiya mazmunining jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi tamoyili.

Kuzatuvlarimiz jarayonida shu narsaga amin bo’ldikki, tamoyillarga amal qilgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o’qituvchining metodik va amaliy kompetentliligini oshirib borishga zamin yaratadi hamda ko’zlangan maqsadga erishishini tezlashtiradi. Natijada ta’lim-tarbiya tizimi metodologiyasini isqlab chiqish, hamda “tizimli yondashuv” tadqiqot usulini qo’llash imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish zamirida:

- aniq mezonlar asosida tartiblangan didaktik jarayon orqali talabalar o’quv faoliyatidagi ilmiy-nazariy bilimlarni o’zlashtirish imkoniyatlari qondiriladi;
- didaktotsentrik texnologiyalar, o’quv dasturida rejalashtirilgan materiallarni ta’lim oluvchilarga etkazishning metodik ta’minoti yaratiladi;
- o’qitish jarayonida o’qituvchi tomonidan qo’llaniladigan didaktik vositalar va didaktik materillar ta’lim tamoyillari asosida yaratiladi;
- talabalarning didaktik qobiliyatlari shakllantiriladi;
- o’quv jarayonining predmetli qo’llab-quvvatlanishi uchun shart sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019 y.

2.Alimov A.A Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash. Pedagogika fanlari bo’yisha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.- T., 2018 . - 74 b.

3.Isakulova N.J. Kasb ta’limi metodikasi: o’quv qo’llanma.-T.:Fan; 2014. – 200 b

4.Musurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug’ati. / o’zbek, rus, ingliz tillarida / T.: “TURON - IQBOL”, 2019. – 844 b

5.Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili; monografiya / T.: “Yosqlar nashriyot uyi”, 2020. -184 b

6.Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik» modulli bo’yicha UMK. Toshkent 2017 -155 b

7.Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. – Toshkent, 2015. –120 bet.